



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI TA’LIMIDA TALABALARDA NUTQ MADANIYATI VA USLUBIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Umida Abdurasulova

Namangan davlat chet tillari instituti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tili ta’limi kontekstida talabalarda nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, innovatsion metodlar va raqamli vositalar asosida nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo‘llari tahlil etiladi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, uslubiy savodxonlik, o‘zbek adabiy tili, adabiy me’yor, kommunikativ kompetensiya, ta’lim texnologiyalari, nutq ko‘nikmalari, til ta’limi

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ И СТИЛИСТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У СТУДЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ СОВРЕМЕННОМУ УЗБЕКСКОМУ ЛИТЕРАТУРНОМУ ЯЗЫКУ

Умида Абдурасулова

Наманганский государственный институт иностранных языков, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье научно и теоретически анализируются проблемы развития речевой культуры и методической грамотности у студентов в контексте современного узбекского литературно-языкового образования. Также, в статье анализируются эффективные пути развития речевой компетенции на основе современных образовательных технологий, инновационных методов и цифровых инструментов, а также даются практические рекомендации.

Ключевые слова: речевая культура, методическая грамотность, узбекский литературный язык, литературная норма, коммуникативная компетенция, образовательные технологии, речевые навыки, языковое образование.

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING SPEECH CULTURE AND STYLISTIC LITERACY AMONG STUDENTS IN TEACHING THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE

Umida Abdurasulova

Namangan State Institute of Foreign Languages, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of the development of students' speech culture and methodological literacy in the context of modern Uzbek literary and language education. Effective ways to develop speech competence based on modern educational technologies, innovative methods, and digital tools are analyzed, and practical recommendations are provided.

Keywords: speech culture, methodological literacy, Uzbek literary language, literary norms, communicative competence, educational technologies, speech skills, language education.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarda nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va mehnat bozorining yangi talablari mutaxassislardan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishni ham talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tili sifatida o‘zbek tilining nufuzi va qo‘llanish doirasi kengayib borishi uni o‘qitish metodologiyasiga yangi talablar qo‘ymoqda. O‘zbek adabiy tilining leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy me’yorlarini to‘g‘ri egallash hamda ulardan nutqiy amaliyotda samarali foydalanish talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosi hisoblanadi.

O‘zbek adabiy tili asrlar davomida tarixiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar ta’sirida shakllangan, me’yorlashtirilgan til shaklidir. Uning me’yorlari — talaffuz, imlo, grammatik va uslubiy qoidalar adabiy tildan to‘g‘ri va samarali foydalanishning asosini tashkil etadi. Shu sababli ham o‘zbek adabiy tili ta’limida bu me’yorlarni ongli ravishda o‘zlashtirish va nutqiy faoliyatda qo‘llashga o‘rgatish ustuvor vazifa sifatida

belgilanmog‘i lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirish masalasi bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Jumladan, A.J. Omonturdiyev va Sh.I. Abduraimovalarning “O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati” qo‘llanmasida nutq madaniyatiga keng ta‘rif beriladi: “Nutq madaniyati tildan bimalol, maqsadga muvofiq va ta‘sirchan bir tarzda foydalana olishni ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potensial mavjud bo‘lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg‘unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir”. Shuningdek, mualliflar uslubiy savodxonlik masalasiga alohida e‘tibor qaratib, “uslubiy me‘yorlar nutq madaniyatining cho‘qqisi hisoblanadi, bu me‘yorlarni mukammal bilish va ulardan erkin foydalana olish madaniy nutq tarbiyasining pirovard maqsadlaridandir” [1], deb ta‘kidlaydilar. Mazkur ta‘riflar o‘zbek adabiy tili ta‘limi uchun, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy tilning me‘yorlari nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy vositasidir. Talabalar o‘zbek adabiy tilining me‘yorlarini qanchalik chuqur bilsa, ularning nutqi shunchalik sifatli va madaniyatli bo‘ladi.

N. Mahmudov, A. Rafiyev va I. Yo‘ldoshevlarning “Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish” darsligida yozma nutq savodxonligi alohida o‘rin tutadi. Darslikda “nutq madaniyatining sofligini nutqning adabiy me‘yorlariga va jamiyatdagi ma‘naviy-axloq qoidalariga yot bo‘lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta‘riflash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqning sofligi uning ma‘naviy-ma‘rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko‘rsatkichlardan biridir” [2], degan muhim xulosa beriladi. Bu fikr o‘zbek adabiy tili ta‘limida adabiy me‘yorlar bilan birga nutq sofligini ham tarbiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

R. Rasulov va Q. Mo‘ydinovlarning “Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati” qo‘llanmasida nutqning kommunikativ sifatleri tizimli tarzda tahlil qilinadi. Mualliflar B.N. Golovinning fikrini keltiradilar: “Ta‘sirchan nutq tinglovchi va o‘quvchining e‘tiborini va qiziqishini hisobga oladigan nutqdir”. Bundan tashqari, qo‘llanmada nutqning asosiy sifatleri — to‘g‘riligi, sofligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ta‘sirchanligi, obrazlilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqliigi kabi mezonlar batafsil yoritiladi [3]. Bu mezonlar hozirgi o‘zbek adabiy tili ta‘limida talabalar nutqini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy tadqiqotchilar D. Hymes [4] va M. Canale [5] ishlarida kommunikativ kompetensiya nazariyasi chuqur o‘rganilgan. Ular nutq malakasini grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar majmui sifatida talqin etadilar. Bu yondashuv o‘zbek adabiy tili ta‘limiga ham qo‘llanilganda, talabalarga nafaqat til me‘yorlarini, balki ulardan turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri foydalanishni ham o‘rgatish zarurligi anglashiladi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarga tayangan holda shuni ta‘kidlash mumkinki, talabalarda nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirishda hozirgi o‘zbek adabiy tili ta‘limining me‘yoriy asoslarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Keltirilgan manbalarga asoslanib, hozirgi o‘zbek adabiy tili ta‘limida nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirishda quyidagi texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi:

O‘zbek adabiy tili korpusiga asoslangan o‘qitish texnologiyasi. Bu texnologiya milliy korpus bazasida o‘zbek adabiy tili nutq namunalarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Omonturdiyev va Abduraimova ta‘kidlaganidek, “adabiy tilning lug‘aviy, so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik, imloviy va talaffuz me‘yorlari mavjud” bo‘lib, ularni real matnlar asosida o‘rganish samaraliroqdir. O‘zbek adabiy tili milliy korpusidan foydalanish talabalarga me‘yoriy nutq namunalarini kuzatish, xatolarni tahlil qilish va o‘z nutqini takomillashtirish imkonini beradi.

Vaziyatga asoslangan o‘qitish texnologiyasi. Rasulov va Mo‘ydinov ta‘kidlaganidek, “nutq uslublari til taraqqiyotining ma‘lum davrida asta-sekin shakllanadi va o‘zgarishlarga uchraydi”. Shu sababli hozirgi o‘zbek adabiy tili ta‘limida turli kommunikativ vaziyatlarda — rasmiy, ilmiy, badiiy, so‘zlashuv uslublarida nutqni uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashni mashq qildirish talab etiladi. Bu texnologiya talabalarda adabiy til uslublarini amaliy faoliyatda farqlash va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli portfel texnologiyasi. Talabalar o‘zlarining nutqiy mahsulotlarini raqamli portfellarda to‘playdilar. N. Mahmudov ta‘kidlaganidek, nutq madaniyati malakasi shunchaki bilib, anglab olingan bilim yoki nazariya emas, balki kishining o‘z nutqiy faoliyatida amal qilishga, qo‘llashga erisha olgan ko‘nikmasidir. Raqamli portfel texnologiyasi esa talabalarga o‘z nutqiy o‘sishlarini kuzatib borish imkonini

beradi.

Tengdoshlar orasida o‘zaro baholash texnologiyasi. Bunda madaniy nutqning asosiy mezonlari — nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyiligi, ta‘sirchanligi va o‘rinli bo‘lishi asos qilib olinadi. Talabalar bir-birlarining nutqiy mahsulotlarini ana shu mezonlar, ya‘ni o‘zbek adabiy tili me‘yorlariga muvofiqiligi asosida baholaydilar. Bu jarayon talabalarda tanqidiy fikrlash va adabiy til me‘yorlarini ongli idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Adaptiv ta‘lim tizimlari va sun‘iy intellekt asosidagi mashq platformalari. Zamonaviy NLP vositalari yordamida o‘zbek adabiy tili me‘yorlariga mos ravishda uslubiy xatolarni avtomatik aniqlash va tuzatish bo‘yicha mashqlar o‘tkaziladi. Sun‘iy intellekt asosida ishlatiladigan platformalar talabalarga individual ravishda xatolarni ko‘rsatib, ularni to‘g‘rilashga yo‘naltiradi.

Ushbu texnologiyalarning samarali ishlashi uchun bir qator pedagogik sharoitlar zarur. Birinchi navbatda, o‘quv dasturlarining integratsiyasi ta‘minlanishi lozim. Ikkinchidan, o‘qituvchining o‘zi ham o‘zbek adabiy tilining jonli namunasi bo‘lmog‘i shart, ya‘ni uning ovozi, talaffuzi, umuman, nutqi talabalar uchun o‘ziga xos namuna vazifasini bajaradi. Uchinchidan, nutqiy muhit yaratish lozim. Bunda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda adabiy til me‘yorlariga amal qilish muhim shart hisoblanadi.

XULOSA

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi o‘zbek adabiy tili ta‘limida talabalarda nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirish metodikasi izchil taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib, dastlab an‘anaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lsa, bugungi kunda interfaol, kompetensiyaviy hamda raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan zamonaviy modelga aylangan. Mazkur transformatsiya ta‘lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, talabalarining faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbek adabiy tili me‘yorlarini o‘rgatish va talabalarda nutq madaniyatini shakllantirish o‘zaro uzviy bog‘liq jarayondir. Adabiy tilning talaffuz, imlo, leksik, grammatik va uslubiy me‘yorlari nafaqat bilim sifatida, balki amaliy nutqiy ko‘nikma sifatida o‘zlashtirilgandagina ta‘lim o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Ayniqsa, raqamli ta‘lim muhitining keng joriy etilishi o‘zbek adabiy tilini o‘rgatish jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kirdi.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari uning tizimli, funksional hamda integrativ tabiatiga tayangan holda shakllanadi. Ushbu yondashuv hozirgi o‘zbek adabiy tili ta‘limini izchil tashkil etish, uning ichki qonuniyatlarini chuqur anglash va o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik yutuqlarni samarali tatbiq etish imkonini beradi. Bundan ko‘rinadiki, talabalarda nutq madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy raqamli yondashuvlar, xususan, innovatsion va interfaol texnologiyalarni o‘zbek adabiy tili ta‘limi bilan uyg‘unlashtirish ta‘lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mazkur yondashuv nafaqat samarali o‘qitish tizimini yaratadi, balki raqobatbardosh, keng dunyoqarashga ega, o‘zbek adabiy tilini yuksak darajada egallagan va zamonaviy kompetensiyalarni o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Omonturdiyev A.J., Abduraimova Sh.I. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati (bakalavr va magistrlar uchun uslubiy qo‘llanma). – Toshkent, 2016. – B. 7–24.
2. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 144 b.
3. Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati. – Toshkent, 2015. – 109 b.
4. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings. – London: Penguin, 1972.
5. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980.